

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY MAFKURA VA MA’NAVIY TARAQQIYOT

Sh.M.Ismatov

Buxoro davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Istalgan davlatda ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarni ro‘yobga chiqarish, eng avvalo, uning g‘oyaviy va mafkuraviy poydevorini mustahkam qilishni taqozo etadi. Agar har bir sohada, shu jumladan, iqtisodiy o‘zgarishlar g‘oyaviy-mafkuraviy tomondan qo‘llab-quvvatlanmasa, haqiqiy milliy yuksalish haqida o‘ylash qiyin bo‘ladi. G‘oyaviy yuksaklik esa bunday kamchiliklarga o‘rin qoldirmaydi. Yangi O‘zbekistonning yuksalish g‘oyasi – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish, insonlarning hayot darajasini taraqqiy ettirish va yuksak darajaga erishishini ta‘minlashda hamda odamlar ong va tafakkurida milliy g‘oyaga bo‘lgan ishonch va e‘tiqod darajasida o‘z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazarda mafkura avvalo o‘zida insonparvarlik, ezgulik, g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan bo‘lishi kerak.*

Kalit so‘zlar: *ma‘naviyat, ma‘naviy makon, fuqorolik jamiyati, g‘oya, huquq, an‘ana, ma‘rifiy jamiyat, ma‘rifatparvar davlat.*

Аннотация: *Осуществление социально-экономических реформ в любом государстве требует, прежде всего, укрепления его идейно-идеологической основы. Если изменения во всех сферах, включая экономическую, не будут подкреплены идеологически-идеологической стороной, трудно будет думать о реальном национальном прогрессе. Идеологическое превосходство не оставляет места подобным недостаткам. Идея возвышения Нового Узбекистана заключается в том, чтобы поднять развитие Нового Узбекистана на новый уровень, обеспечить улучшение и достижение высокого уровня жизни людей и найти свое выражение в уровне доверия и веры в национальную идею в умах и мыслях людей. С этой точки зрения идеология должна, прежде всего, воплощать гуманизм, добро, идеалы.*

Ключевые слова: *духовность, духовное пространство, гражданское общество, идея, право, традиция, просвещенное общество, просвещенное государство.*

Abstract: *The implementation of socio-economic reforms in any state requires, first of all, strengthening its ideological and ideological foundation. If changes in every sphere, including economic ones, are not supported from the ideological and ideological side, it will be difficult to think about real national progress. Ideological superiority leaves no room for such shortcomings. The idea of the rise of New Uzbekistan is to raise the development of New Uzbekistan to a new level, to ensure the improvement and achievement of a high standard of living for people, and to find its*

expression in the level of trust and belief in the national idea in the minds and thoughts of people. From this point of view, ideology must first of all embody humanism, goodness, ideals.

Keywords: spirituality, spiritual space, civil society, idea, law, tradition, enlightened society, enlightened state.

Kirish. O‘zbekistonning bugungi ijtimoiy rivojlanishidagi muhim jihatlardan yana biri - jamiyat qurushi va milliy tiklanish jarayonida evolyutsion rivojlanishning ustuvor ahamiyatga ega ekanligidir. O‘zbek xalqining mentalitetiga xos bo‘lgan bunday taraqqiyot pirovard natijada O‘zbekistonda demokratik, insonparvar huquqiy davlat qurilishining kafolati hisoblanadi.

“Shu bois mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash shakllanib, uning huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslanmoqda. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi konstitusiyaviy asoslar bilan mustahkamlab qo‘yildi”[1].

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayoni boryapti va bunda dunyoning yaxlit mafkurasini yaratish muammosi yuzaga kelmoqda. Insonparvar jamiyatda barcha tuzilma va sohalar shunday o‘zgarishi kerakki, bunda inson jamiyatning barcha jabhalarida bilimlar ijodkori sifatida shakllansin va rivoj topsin, ya’ni jamiyatni insonning ijodiy mohiyatiga muvofiq qaror toptirish lozim. “Buning uchun inson mehnatini o‘zgartirish, unda faqat sof insoniy faoliyatni qoldirish zarur. Bu– ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, moddiy ishlab chiqarishlarni qayta qurish jarayonida ilmiy, boshqaruv, texnologik faoliyatlarning ijod bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha turlari kompyuterlashgan va robotlashtirilgan tizimlarga o‘tkazilishi, insonga esa faqat sof insoniy faoliyat, ya’ni yangi bilimlarni ishlab chiqarishga qaratilgan ijod qolishini anglatadi”.

Muhokama. Hozirgi davrda mamlakatimiz rivojlanishida Prezident Shavkat Mirziyoyev taqdim etgan O‘zbekiston – 2030 strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar va eng muhim vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu hujjat –Yangi O‘zbekistonning poydevorini tiklash va binosini qurishga qaratilgan. Bu buyuk bunyodkorlik jarayoni 2030 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va yilma-yil amalga oshirib boriladi.

Strategiyaning markazida inson turadi. Bu, o‘z navbatida, insonparvarlik falsafasiga asoslanadi. Insonning rivojlanishi, uning salomatligi, ta’limi va ijtimoiy farovonligi strategiyaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Strategiya barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Bu, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarining uyg‘unligini ta’minlashni anglatadi. Masalan, yashil

iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi maqsadlar belgilangan.

Ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu, barcha fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratish, kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashni anglatadi.

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ta'lim va tarbiyani mustahkamlash hamda yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu, milliy identitetni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Unda quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalish nazarda tutilgan:

“birinchi ustuvor yo'nalish – har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

ikkinchi ustuvor yo'nalish – barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;

uchinchi ustuvor yo'nalish – suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

to'rtinchi ustuvor yo'nalish – qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

beshinchi ustuvor yo'nalish – “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish”.

Insonparvar jamiyatda ma'naviy va moddiy boylikning chambarchas uyg'unligi, shuningdek, individlar, davlatlar va tamaddunlarning adolatli tengligi amalga oshiriladi[3]. Jamiyatning demokratik o'zgarishlari jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy sohalarining turg'unligi va barbod bo'lishi yuz bermoqda. Ijtimoiy tuzilmalar va sohalarining ishlashi izdan chiqib ketdi. Korrupsiya, oligarxiya, yangi byurokratik davlat elitesining ko'payishi, mafioz tuzilmalarning tashkil topishi, biznesning jinoiylashuvi, mamlakat xom ashyo resurslarining talon taroj bo'lishi ana shunday salbiy jarayonlarning natijasidir.

Islohotlar jarayonida ayrim qo'shni mamlakatlarda demokratlar sovet jamiyatidan qolgan mafkuraviy tuzilmasini barbod qildilar, lekin uning o'rnini hech nima bilan to'ldira olmadilar, ya'ni ular yangi demokratik mafkurani yaratmadilar va joriy etmadilar. Jamiyatning barcha zaxira manbalari iqtisodiyotni rivojlantirishga, erkin bozor muhitini yaratishga, jamiyatning eng oliy maqsadi va qadriyati barkamol shaxsni shakllantirish ekanligini unutmagan holda, uning munosib yashashi va turmush kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga safarbar etilmoqda. Albatta, mafkuraviy qadriyatlarsiz jamiyat yashay olmaydi, binobarin, u ana shu qadriyatlarga asoslanadi. Shuning uchun milliy xususiyatga ega sotsialistik qadriyatlar o'rniga g'arbiy liberal qadriyatlarni siyosiy va huquqiy texnologiyalar darajasida joriy etishga kirishishdi. Zero,”...ma'lumki, nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgan yagona, bir butun mafkura bo'lmas ekan, hukmron davlat tuzilmalari amaliy xarakterdagi

siyosiy va huquqiy mafkurani ishlab chiqa boshlaydi hamda shuasosda ijtimoiy jarayonlarni boshqara boshlaydi”.

Shunday ekan, bozor munosabatlariga o‘tishda kishilarimizning kayfiyatini hisobga olish, dastlabki kezlarda o‘tgan davrdan qolgan muayyan ijobiy tajribalardan samarali foydalanishni ham unutmashimiz kerak.

Odil va oqil hokimiyat xalq kayfiyatini, uning irodasini albatta hisobga oladi. Xalqning iste’dodini, undagi barcha olijanob xislatlarni ishga soladi, xalq g‘ayratini yaratuvchilik yo‘liga boshqaradi.

Umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma yaxlit bir tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy tizim deganda, hayotiy resurslarning ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida hamda har bir qatlam ichidagi guruhlar orasida taqsimlanishi natijasida shakllangan, davlat fuqarolari o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar majmui tushuniladi.

Ilmiy manbalarda “jamiyat” termini ko‘pincha “mamlakat” so‘zining muqobili sifatida qo‘llaniladi. “Mamlakat” atamasi ishlatilganda, barcha turdagi insoniy munosabatlar – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va madaniy aloqalarning yig‘indisi nazarda tutiladi. Biroq, “jamiyat” yoki “jamo” atamalarida ko‘proq ijtimoiy jihatlariga e’tibor qaratiladi. “Jamiyatning asosiy elementlari – bu odamlar, ularning ijtimoiy bog‘lanishlari, faoliyati va o‘zaro ta’siri, ijtimoiy institutlar va tashkilotlar, guruhlar, qoidalar va qadriyatlaridir”[5], deya ta’kidlanadi.

Demak, jamiyat – bu, mamlakatning tizim osti, ya’ni u ijtimoiy tizim ostiga moddiy ishlab chiqarish sohasiga kirmaydigan tarmoqlarning majmui: ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at kiradi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki bugungi global makonda, o‘zaro raqobat muhiti, turli siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan bir zamonda yoshlarni har tomonlama sog‘lom fikrli qilib tarbiyalash ularning ma’naviyatini yuksaltirish, mafukarviy imunitetni shakillantirish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu munosabat bilan aholi o‘rtasida ayniqsa yosharning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakillantirish va tarbiyalash ularni g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashda mafkuraviy imunitetni shakillantirish muhim vazifa sanaladi. Biz Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat qurar ekanmiz avvalo yurtimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlarni tub mohiyatani xalqimizga yetkazish, ahloning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, xalqimizning boy tarixi, ilmiy madaniy-madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent.: “O‘zbekiston”. – B. 34.

2. Abdullayeva M.N. Milliy goyaning ilmiy-falsafiy asoslari. // muharrir: f.f.d. R.M.Imomalieva. Mas'ul T.: Falsafa va huquq instituti, 2011. – B. 16.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni: Bu hujjatda O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasi, ya'ni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi belgilangan.
4. Abdullayeva M.N. Milliy goyaning ilmiy-falsafiy asoslari. // muharrir: f.f.d. R.M.Imomalieva. Mas'ul T.: Falsafa va huquq instituti, 2011. – B. 36.
5. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / Q.Nazarov [va boshq.]. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – B. 147.